

**UDK 37.02**

**Gulrukh Tillabaeva, lecturer,  
Gulrux Tillabayeva, o‘qituvchi,  
Fergana State University,  
Farg‘ona davlat universiteti,  
Uzbekistan, Fergana city**

**EFFECTIVE ASPECTS OF THE USE OF EDUCATIONAL  
TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION**

**Annotation:** thanks to independence, an era of renewal and development has begun in the Uzbek land, and social life is rapidly entering the directions of development corresponding to universal templates. Huge reforms are being carried out in all spheres of the national economy, including in the field of education.

**Keywords:** education, innovation, primary education, innovation, pedagogical technology.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISHNING SAMARALI JIHATLARI**

**Annotatsiya:** Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek diyorida ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo‘nalishlariga jadal sur‘atlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo‘jaligining barcha sohalari, shu jumladan, ta‘lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, innovatsiya, boshlang‘ich ta‘lim, innovatsiya, pedagogik texnologiya.

Ta‘lim insoniyat taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Yangi asrda jamiyatning har tomonlama ravnaq, topishi, taraqqiy etishi bevosita ta‘limning rivojlanishi, mazmunan takomillashib borishiga bog‘liq. Ayni paytda ta‘limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotganligi, keng ko‘lamli axborotlar oqimi ta‘lim mazmunini muntazam yangilab,

takomillashtirib borishni taqozo etadi. “Innovatsiya – sohaga yangilik, o’zgarishlar olib kirish jarayoni va faoliyati”[1] bo’lib, “innovatsion texnologiya - pedagogik taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayonidir”[2]. Jadal zamonaviy rivojlanish sharoitlarida jamiyat, madaniyat va ta’limning innovatsion pedagogik faoliyatning, aniqrog’i innovatsion texnologiyalarning zarurligi qator omillar bilan belgilanadi:

- ta’lim tizimidagi tub o’zgarishlarni taqazo etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar, ta’lim tizimida yangilanishlar, turli o’quv muassasalarida o’quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda metodika va texnologiyalardan foydalanishning zarurligi. Pedagoglar faoliyatining innovatsion yo’naltirilganligi ta’lim siyosatining yangilanish vositasi sifatida namoyon bo’ladi;

- pedagoglar tomonidan yangiliklarni qo’llashga va o’zlashtirishga nisbatan yondashuvning o’zgarishi. Ta’lim –tarbiya jarayonlari qat’iy vaqt me’yorlariga rioya etish talab qilinadigan sharoitlarda pedagoglar nafaqat dastur va darsliklarni ixtiyoriy tanlash, balki o’zlarining pedagogik faoliyatlarida usul va vositalarni tanlashda ham ma’lum chegaralar mavjud edi.

Hozirgi vaqtda bolalar bog’chasidan tortib barcha ta’lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan o’qituvchi zarur bo’lmoqda. U pedagogik jarayonning ijodkori bo’lishi, moslashuvchan fikrlashga ega bo’lishi, pedagogik texnologiyalardan mohirona foydalanishi lozim. Hozirgi zamon o’qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o’z kasbiga sadoqatliligi, g’oyaviy e’tiqodliligi, o’z kasbini sevishi, bu kasbga bo’lgan cheksiz sadoqat o’qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. O’qituvchi shaxsiga qo’yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o’zi o’qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o’zlashtirib olgan bo’lishi zarur.

Maktablarda boshlang’ich ta’lim pedagog-o’qituvchilaridan pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarining qo’llanishi masalasi dolzarb ahamiyatga ega, chunki ta’lim muassasasining ishiga pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi – maktab ta’lim-tarbiya tizimini

takomillashtirish va isloh etishning eng muhim shartidir. Metod tushunchasining pedagogik ma'nosi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish va ularni amaliyotda qo'llash demakdir.

Ta'lim metodlarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi:

1. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar;
2. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

Umumta'lim tizimida boshlang'ich maktabning roliga ortiqcha baho berish qiyin. Uning asosiy vazifalari – o'quvchilarda o'qish, yozish, sanash ko'nikmalarini hosil qilish bilan bir qatorda – o'quvchilarni o'rganishga o'rgatish, muloqot qilishga o'rgatish, tizimli ravishda mehnat qilish odatini singdirish, egallangan texnologik bilim elementlari asosida dastlabki qadriyatli yo'nalishlarni ko'rsatish va b.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni ta'lim texnologiyasining asosini, yadrosini tashkil etadi hamda ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchi, ta'lim shakli, metod, vositalari va ta'lim beruvchi kabi unsurlardan iborat tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tarkibiy unsurlar o'zaro birlik va aloqadorlikda ta'lim jarayonining umumiy mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

“Ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq omillar rus olimi S.G.Shalovalenko tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- texnikani bilish va mukammal egallash;
- audiovizual fond bilan tanish bo'lish;
- texnika vositalaridan foydalanish metodikasini egallash”[3].

Ta'lim jarayoni bir nechta shartlarga muvofiq tashkil etiladi.

Ular quyidagilardir:

1) ta'lim olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ijtimoiy (yoki shaxsiy) ehtiyojlarning yuzaga kelishi;

2) ta'lim olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan rag'batning uyg'onishi;

3) o'quvchining o'quv-bilish faoliyati mazmunini belgilash;

4) o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini boshqarishni yo'lga qo'yish omillarining mavjudligi.

Ta'lim texnologiyasining funktsional tuzilmasi bevosita ta'lim jarayonining mohiyatini to'laqonli yoritishga xizmat qiladi. Ya'ni, ushbu tuzilma o'zida ta'lim jarayonining umumiy ko'rinishi (tashkiliy shakli va ichki mohiyati), obrazini ifoda etadi. Ta'lim texnologiyasining funktsional tuzilmasini tasvir orqali quyidagicha aks ettirishga harakat qildik. Ijtimoiy raqobat mavjud bo'lgan sharoitda mo'tadil faoliyat yurtish, raqobatga nisbatan ishchanlik immunitetini hosil qilish manfaatlar to'qnashuvida «omon» qolish, yuqori mavqeiga ega bo'lish uchun imkoniyat yaratadi. Shu bois o'quvchilarda ta'lim olish, nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli yondashuv hissi qaror topmoqda. Bu esa ularda ta'lim olishga bo'lgan rag'batni hosil qilmoqda. Endilikda ta'lim olish, muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislik ma'lumotlarini egallash, bu borada ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Ta'lim olishga bo'lgan rag'bat va uning mazmuni ta'lim jarayonining muvaffaqiyatining garovi, kafolati bo'la oladi.

Endilikda o'quvchi o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborot (bilim)larni qabul qilmaydi. Balki ta'lim beruvchining yo'llanmasi, ko'rsatmasiga muvofiq tavsiya etilgan o'quv manbalari bilan mustaqil ravishda tanishish orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, o'qituvchining nazorati ostida amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. O'quvchi mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida o'zida fikrni ilgari surish, dalillar keltirish, o'z fikrini himoya qilish layoqatini tarbiyalay olishi, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini baholash sifatlarini qaror toptira olishi talab etiladi. Davr talabi o'quvchini ta'lim jarayonining sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda. O'quvchining faoliyat mazmunini to'laqonli yoritilishida ta'lim shakli, metod va vositalarining ahamiyati katta. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim

texnologiyasi tinglovchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u tinglovchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim texnologiyasining samarali jihati – ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. D.Kasimova. “Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar” moduli bo'yicha ma'ruza matni. Toshkent, 2017 yil, 34-b.

2. M.Yu.Yuldasheva. Boshlang'ich ta'limni o'qitish metodikasi moduli bo'yicha O'UM. Toshkent, 2018 yil, 203-b

3. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008 yil, 275-bet.

4. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO'LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.

5. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA “SHAXS” TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 182-196.

6. Qizi, G. S., & Umarova, N. R. (2021). The use of anthroponyms and pseudonyms in alisher Navoi's gazelles. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 349-353.

7. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). OBRAZLAR TALQINIDA LINGVISTIK IMKONIYATLAR. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 91-95.

8. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).